

# Turar-Joy Binolarini Joylashtiriladigan Hududlarga Qo'yiladigan Shaharsozlik Talablari Va Shu Asosida Vujudga Keladigan Muammolarni Hal Etish

*Toshmatov Ulug'bek Qodirjon o'g'li<sup>1</sup>, Abdumalikov Ravshanbek Rasuljon o'g'li<sup>2</sup>*

**Annotatsiya:** Arxitekturaning funksional, konstruktiv va estetik xususiyatlari arxitektura tarixi davomida rivojlanib, hozirda me'moriy uslublarda o`z ifodasini topdi. Arxitektura uslubi – san'atining usul va vositalarini, asboblarini va texnik tarixan rivojlanib majmui, u me'moriy shakllar, ularning nisbatlarini va zeb-ziynatlardan, oraliq tashkil qilishni bu davrning xarakterli tanlashda yo'llari namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada, turar-joy binolarini joylashtiriladigan hududlarga qo'yiladigan shaharsozlik talablari va shu asosida vujudga keladigan muammolarni hal etish haqida fikr va mulohazalar qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Turar-joy binolari, arxitektura, texnologik jarayon, shaharsozlik talablari, muammo, kompozitsion sxema.

Funksional texnologik jarayon – bu bino asosiy funktsiyasini muayyan hajmda va vaqt oralig'ida amalga oshirilishi tushuniladi. Arxitekturaviy loyihalashning asosiy masalasi bu binoda ro't beradigan funksional texnologik jarayonlarni bir tizim asosida shakllantirishdir. Avvallo, binoda ro'y beradigan funksional-texnologik jarayonlarning shart-sharoitlarini tahlil qilish, ushbu jarayonlarning ketma-ketligini aniqlash, shu asosda ularning orasidagi bog'liqlikni topish va yakunida binoning kompozitsion sxemasini aniqlash talab etiladi. Jamoat binosi funksional sxemasi - obyekt strukturasining funksional bog'lanishi haqida, binoda yuz beradigan funksional jarayonlarning ketma-ketligi borasidagi to'liq axborotni taqdim etadi.

Zamonaviy arxitekturada (asosan turar-joy va jamoat bino va inshootlari) arxitektorlar ko'proq andozali elementlardan foydalanishga harakat qiladilar. Ko'p qirrali arxitekturani turli qatlamlari va ishlab chiqarishda yangi texnologiyalarni kundan-kunga tezkorlik bilan o'zgarishi jarayonida arxitektorlar loyihami yengillashtirish uchun unifikasiyalash va tipizasiyalashga intildilar. Shuning uchun bino va inshootlarni loyihasini bajarishda ichki murakkab funksional-texnologik jarayonlarini, ularni tabiiy iqlimi sharoitlari, xonalar o'chami, yong'in xavfsizligi va boshqalar ta'siri ostida vujudga keladigan me'yoriy norma va qoidalarni bilish vazifalari belgilangan.

Jamoat binolari va uning komplekslari sun'iy yaratilgan muhit bo'lib bir yoki bir nechta jarayonlarning o'zaro bog'liq bo'lgan insonning hayotiy faoliyatini o'tkazishga mo'ljallangandir. Jamoat bino va inshootlarning eng asosiy omili esa, uning hajmiy-rejalashtirilishini asosini insonning hayotiy faoliyati davomida jamiyatga, xizmat qilishga erishishdan iboratdir. Shuning uchun ham jamoat bino va inshootlarini loyihalashda turli xildagi kompleks omillarini (faktorlar) hisobga olish kerak bo'ladi. Bular: ijtimoiy, shaharsozlik, tabiiy - iqlimi, milliy-maishiy, konstruktiv, fizik-texnikaviy, iqtisodiy, arxitekturaviy va badiiyidir.

Shahar (yashash) hududlarining tanqisligi tufayli jamiyat rivojlanishida shaharlar ro'lining oshish jarayonida aholini joylashtirilishi bo'yicha liftsiz va ko'p qavatli uylar turar – joy binolarining asosiy turlariga aylanmoqda. Ularning ko'p sonda qo'llanishi yashash hududlari va injenerlik kommunikasiyalardan yetarli darajada samarali foydalanish imkonini bermoqda. Turar – joy binolarining bunday turi Markaziy Osiyo viloyatlarida turli – tuman arxitekturaviy rejaviy, hajmiy – obrazli va konstruktiv yechimlari bilan yanada keng tarqalib bormoqda. Ular iqtisodiy jihatdan foydali bo'lib, turli sonli va demografik tarkibdagi oilalarning yashashi uchun fazoviy – rejaviy parametrlar bo'yicha respublikamizning murakkab iqlimli va seysmiq rayonlarda (7 – 9 balli) ma'lum muddatlarda normal sanitarni gigiyenik va komfort sharoitlarni yaratadi.

Loyihaviy yechimlarni tanlashda arxitektura-qurilish me'yorlaridan to'liq va unumli foydalanish zarur, shuning uchun loyiha tanlashda bir necha xil loyihalarning ichidan texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari jihatidan tejamli bo'lganlarini olish yaxshi natija beradi. Mamlakatimizdagi mavjud va rejalashtirilgan bino va inshootlar qurilishi hajmiga ko'ra, ushbu muammoni yechishga yo'naltirilgan moddiy mablag' va mehnat resurslaridan ratsional foydalanish ahamiyati oshmoqda. Bu bilan loyiha yechimlarining iqtisodiy samaradorligi qat'iy nazorati zaruriyati tug'iladi. Loyihalarning iqtisodiy baholash uchun bir nechta ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ko'p qavatli turar joy binolariga 6 qavatdan 9 qavatgacha bo'lgan uylar kiradi. O'rta qavatli uylardan farqi shuki bu uylarda albatta lift joylashtirilgan bo'lishi kerak. Ko'p qavatli turar joy binolari qurilishida hamma loyiha turkumlari ishlataladi. Bo'linmali(seksiyali), yo'lakli(galereyali), karidorli, minorali va aralash turkumlar. Ayniqsa, ko'p tavsiya etiladiganlari bo'linmali (seksiyali), yo'lakli (galereyali) turkumlaridir. Bu turkumlar universal bo'lib, ko'p xonali va kam xonali xonadonlarning to'liq yechimi va iqtisodi tomonlama qulaydir. Uylarning asosiy qurilmalari yengillashtirilgan panellar, sinchlari po'latdan bo'lishi kerak. Iloji boricha yengillashtirilgan qurilmalar va qurilmalarni joyida quyma yengil temir beton ashyolar ishlatalish kerak.

<sup>1</sup> Farg'onha Politexnika instituti, Qurilish fakulteti talabasi

<sup>2</sup> Farg'onha Politexnika instituti, Qurilish fakulteti talabasi

Kelajakda sinch hajmiy elementlardan foydalanish ko'zda tutilmoxda. Ya'ni po'lat sinch yengil hajm elementlar bilan to'ldiriladi. Ularni har xil usulda joylashtirib, me'moriy ko'rinishini boyitish mumkin. Har bir jamoat binosoning arxitekturaviy-rejaviy yechimlari ularning maqsadiga muvofiq yuz beradigan texnologik jarayonlarga bo'ysuntirilgan. Shu sababdan bino va inshootlarda yirik o'lchamli xonalar paydo bo'ladi. Yirik o'lchamlilarga sport zallar, o'quv leksiya zallari, teatr zallar va boshqalar, mehmonxonalar, sanatoriylar, kasalxonalar. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, xonalarning joylashuvi va funksional belgilariga qarab guruhanishi ma'lum qonuniyat asosida amalga oshriladi.

Turar-uy joy qurilishi yer yuzida juda katta tarixga egadir. Chunki, odamzot paydo bo'lgandan beri u o'zini tashqi muhit va ta'sirlardan: dushmanlar, yirtqich hayvonlar, sovuq va issiqdan saqlanish uchun uy-joy qurgan, shuningdek, uy-joy odamni dam olishga va ishlashiga asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Vaqt o'tishi bilan uy-joyning vazifasi, funksiyasi takomillashib va kengayib borgan. Uy-joylar me'morchnligi jamiyatning sotsial sharoitiga, vaqtning ruhiga va boshqa shart - sharoitlarga moslasha borgan. U oddiy chayla yoki g'ordan bizning davrimizga kelib hozirgi zamon turar-uy joyiga, ya'ni hozirgi mavjud jihozlar bilan takomillashgan obyektga aylandi.

**Xulosa qilib aytganda**, turar uy-joy binolari o'zining vazifasiga ko'ra o'z ko'rinishiga ega bo'lishi kerak. Qurilishda turar uy-joyining bo'laklari (detali) inson o'lchoviga hamohang bo'lishi kerak. Bu vazifalar kam qavatlari uy-joylarda osonroq hal qilinadi. Ko'p qavatlari Turar-joy uylarining tashqi ko'rinishini tanlashda me'morlar ancha qiyinroq vazifalarni yechishiga to'g'ri keladi. Bunda binoning mashtabiga mos ravishda yirik bo'laklarni qo'llash (ustunlar, antablement va boshqalar), uy joy binolarini monumental va boy bo'lishiga olib keladi, bu esa ularning oldiga qo'yilgan badiiy talablariga javob berishi kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Inogomov B.I. Zamonaviy bino va inshootlarni loyihalash: O'quv qo'llanma. - T.: 2010.
2. Ubaydullaev X.M., Inagamova M.M. Turar joy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari: Darslik. - T.: Voris-nashriyot, 2005. -251 b.
3. Abdujabbarova M.T. Arxitekturaviy loyixalash va qurilishning me'yoriy asoslari: Ma'ruzalar matni. T.: TAQI, 2017.
4. L.Krundshev. O'rta qavatlari seksiyali Turar-joyi uyini arxitekturaviy loyihalash: Kurs ishini bajarish uchun metodik ko'rsatmalar, 2009.
5. Хидоятов Т.А., Ф.Х.Магомедова, Кодирова С.А., Худойберганова Н.ИИ. Архитектура общеобразовательных школ: Учебные пособие. – Т.: 2005.